



O‘ZBEKISTON – SLOVENIYA: IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR MUNTAZAMLIGI UCHUN OLIY DARAJADAGI MULOQOTLARNI FAOLLASHTIRISH MUHIM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musarning taklifiga binoan 21-22-may kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



22-may kuni Lyublyanadagi Kongress maydonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbarini Sloveniya Prezidenti Natasha Pirs Musar samimiy kutib oldi. Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saflandi. Harbiy orkestr O‘zbekiston va Sloveniya davlat madhiyalarini ijro etdi.

Ikki mamlakat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolari bilan salomlashdilar.

Rasmiy marosimdan so‘ng “Zvezda” bog‘ida urush qurbonlari xotirasiga hurmat hamda tinchlik va insonparvarlik g‘oyalarga sadoqat ramzi sifatida Barcha urushlar qurbonlari yodgorligiga gul qo‘yildi.

Shundan so‘ng Lyublyana shahridagi Prezident saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musarning tor doiradagi va rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Sloveniya yetakchisiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, so‘nggi yigirma yilda ilk bor o‘tkazilayotgan oliy darajadagi tadbirlar ikki mamlakat munosabatlarida yangi bosqichning boshlanishi sifatida tarixga kirishini ta’kidladi.

O‘zbekiston va Sloveniya o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Siyosiy muloqot, turli darajadagi aloqalar va ishbilarmonlik uchrashuvlari faollashgani mamnuniat bilan qayd etildi. Ikki mamlakat BMT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash uch barobar ko‘paydi. Madaniyat va turizm sohalaridagi almashinuvlar kengaymoqda. O‘zbekistonda Sloveniya fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilgan.

Ikki tomonlama munosabatlarga tizimli tus berish uchun oliy va yuqori darajadagi muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

Tovar ayirboshlashni ko‘paytirish va uning hajmini, eng avvalo, mahsulotlar turini kengaytirish va import o‘rmini bosish hisobiga birinchi bosqichda 500 million yevroga yetkazish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekistondan to‘qimachilik, mevasabzavotlar, mineral o‘g‘itlar, mis mahsulotlari va boshqa sanoat tovarlari, Sloveniyadan esa dori-damnonlar, ilg‘or texnologiyalar va uskunalar yetkazib berish shular jumlasidan.

Sloveniyaning “Koper” porti salohiyatidan Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqish uchun logistika xabi sifatida foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Sloveniyaning yetakchi kompaniyalari bilan Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish, shuningdek, zamonaviy asbob-uskunalar, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, farmatsevtika mahsulotlari, shu jumladan, asal va shifobaxsh g‘iyohlarga asoslangan dori ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, energetika obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Mehnat migratsiyasi sohasida tizimli hamkorlik qilish uchun til, kasbiy ko‘nikmalar va mehnat standartlari bo‘yicha o‘qitish, moslashtirish dasturlarini ishlab chiqqan holda Uyushgan mehnat migratsiyasi to‘g‘risidagi bitimni tayyorlashga kelishib olindi.

Turizمنى, ayniqsa, qishloq va tog‘li hududlarda rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilandi. Ta’lim sohasida tomonlar diplomlarni o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi bitimni imzolashga hamda Lyublyana va Maribor universitetlari bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yishga kelishib oldilar.

Bundan tashqari, kelgusi yilda Toshkent shahrida ikki mamlakat oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari ishtirokida Yoshlarning innovatsion loyihalari forumi o‘tkazildi.

Gumanitar almashinuvni mustahkamlash maqsadida tomonlar o‘zaro madaniyat kunlari va Lyublyana shahrida O‘zbek kinosi haftaligini o‘tkazish tashabbusini ilgari surdilar.

Belgilangan barcha vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Hukumatlararo

komissiyaning birinchi yig‘ilishini joriy yil iyul oyida Lyublyana shahrida tashkil etishga qaror qilindi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Sloveniya Prezidenti Natasha Pirs Musarga o‘zi uchun qulay vaqtida javob tashrifi bilan O‘zbekistonga kelishni taklif etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Respublikasiga rasmiy tashrif doirasida ushbu mamlakat Bosh vaziri Robert Golob bilan uchrashuv o‘tkazdi. O‘zbekiston bilan Sloveniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik va amaliy sheriklikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarida kengaytirish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

Bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralarning samarali natijalari yuksak baholandi.

Savdo, investitsiya va kooperatsiya sohalarida birgalikdagi ishlarni faollashtirish muhim ekani ta’kidlandi. Tashrif doirasida o‘tkaziladigan biznes forumi yangi aloqalarni o‘rnatish va qo‘shma loyihalarni

ilgari surish uchun samarali maydon bo‘lishi ta’kidlandi.

Talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni o‘zaro yetkazib berishni ko‘paytirish orqali tovar ayirboshlash hajmini 500 million yevroga yetkazish choralari ko‘rib chiqildi. “GSP+” preferentsiyalar tizimi va imzolangan standartlashtirish to‘g‘risidagi bitim ham savdoning o‘shishiga turki beradi.

Texnologik modernizatsiyaga urg‘u bergan holda Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturi tayyorlanadi. Shu ma’noda, Sloveniya yetakchi kompaniyalarining O‘zbekistonda elektrotexnika, uskunasozi, farmatsevtika, “yashil” energetika, “aqlli” qishloq xo‘jaligi sohalarida loyihalarni amalga oshirish borasidagi intilishlari qo‘llab-quvvatlandi.

Bunday ishlab chiqarishlarni mamlakatimizda “Inpark” boshqaruvida Yevropa kompaniyalari uchun tashkil etilayotgan maxsus sanoat parkida joylashtirish taklif etildi.

Davomi 2-betda

KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNING ISHONCHLI DAVRIGA QADAM QO‘YILMOQDA

XORIJLIK EKSPERTLAR O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING SO‘NGGI 20 YIL ICHIDA SLOVENIYAGA BIRINCHI TASHRIFI YAKUNLARI HAQIDA



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 21-22-may kunlari Sloveniyaga bo‘lib o‘tgan rasmiy tashrifi yuqori hamkorlik salohiyatiga qaramay, yaqin-yaqingacha ushbu imkoniyatdan foydalanilmagan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi.

Davomi 2-betda


MILLAT FIDOYILARI

QALBLAR TITRAR, JO‘SH URAR G‘URUR VA ULG‘AYAR YOVQUR QAHRAMONLAR



Biz tanlagan yo‘l

Bu yilgi bahor yurtimiz uchun quvonchli, tarixiy voqealarga boy bo‘lmoqda. Mart va aprel oylarida uch davlat chegarasida “Do‘stlik” stelasi o‘rnatildi. Samarqandda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi o‘tkazildi. Bular hech o‘ylanmasdan yozganda yodga tushgan voqealar. Quvonarlisi, may oyi ham mamlakatimiz tarixiga bir necha muhim voqealar bilan muhrlandi. Ushbu voqealarning birini alohida ajratib ko‘rsatish, eng muhimi shu, deyish mushkul. Ammo biz ramziy ma’noda yurtimizdagi barcha o‘zgarishlar, kelgusi rejalarini o‘zida jamlagan hodisa — Prezidentimizning 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘ida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda bildirgan fikrlarini ushbu tarixiy voqealarning markaziy nuqtasi deb oldik.



Avvalo, bunday qarorga kelishimiz sababini izohlasak. Ma’lumki, davlatimiz rahbari hududlarga tashrifi davomida doim xalqimiz bilan muloqot qiladi. Ularning o‘y-fikrlari bilan qiziqadi. Oddiy odamlar, mas’ullar fikriga quloq tutib, ana shu jarayonda mamlakat taqdiriga daxldor bo‘lgan tashabbuslar ilgari suriladi. 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘ida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda ham xuddi

shunday bo‘ldi. Bu uchrashuvning boshqalaridan farqi shundaki, unda davlatimiz rahbari ko‘pdan buyon o‘ylab yurgan fikrlari bilan o‘roqlashdi. Abu Nasr Forobiy: “Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta’sir o‘tkazish yo‘llari sodda va tushunarli bo‘lmog‘i lozim”, deganida naqadar haq edi. Zero, fikr doim erkindir. Shu bois, u doim yurakning tub-tubidan chiqib, insonning asl maqsadini ifodalashga

xizmat qiladi. Davlatimiz rahbarining ushbu fikrlari yangi O‘zbekiston tanlagan yo‘lining hammaga tushunarli tilda, lo‘nda yetkazib berilgani bilan yanada dolzarblik kasb etdi. Bugun ana shu fikrlar fonida so‘nggi kunlardagi tarixiy voqealarni tahlil etsak. Ularning asl mohiyatini anglashga urinsak. Biz tanlagan yo‘l haqida suhbatlashsak. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tanlagan yo‘lning naqadar

to‘g‘riligi va ulug‘vorligi bugun biz erishgan juda ko‘p tarixiy yutuqlarda ko‘zga tashlanib turibdi.

Millat fidoyilari chirog‘i hech qachon o‘chmaydi

Birinchi anglam. Davlatimiz rahbari G‘alaba bog‘idagi uchrashuv chog‘ida: “Bizning eng katta boyligimiz — bu tinch va osoyishta hayotimiz, Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning omonligidir. Bugungi kunda barcha harakat va islohotlarimiz, hamma ezgu niyatlarimiz bir ulug‘ maqsadga — davlatimiz istiqloli, el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashga qaratilgan. Eng katta maqsad-muddaomiz — mehnatkash, mard va olijanob xalqimizni rozi qilishdan iborat”, dedi.

Dunyoning bugungi qiyofasi tinchlik nechog‘liq aziz va bebaho ne‘mat ekanini ko‘rsatib turibdi. Afsuski, turli ziddiyatlar dunyo miqyosida tahlilki vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Bu iqtisodiyotdan boshlab barcha soha rivojiga to‘siq bo‘layotgani ham achchiq haqiqat. Masalan, bitta davlat osmonidagi notinchlik sabab o‘nlab mamlakatlarni bog‘laydigan aviareyslarning kechikishi, hatto bekor bo‘lishi ham kuzatilmoqda. Ana shu fonda iqtisodiy urushlar avj olayotgani ham bor gap. Buning oqibati faqat ziddiyatga kirishgan davlatlar bilan cheklanib qolmaydi. Global dunyoda buning imkonlari ham yo‘q. Ana shunday vaqtida tanlagan yo‘l qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat oldinga qarab borish, to‘g‘ri yo‘l tanlay olish... nihoyatda oqillik va jasoratli yurishlarni talab etadi. Zero, qadimgi Rimning mashhur faylasufi Seneka aytganiday: “Faqat aql-idrok osoyishtalikni ta’minlay oladi”.

Davomi 3-betda



2025-yil 23-may, 104-son

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON

O‘ZBEKISTON – SLOVENIYA: IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR MUNTAZAMLIGI UCHUN OLIY DARAJADAGI MULOQOTLARNI FAOLLASHTIRISH MUHIM

Boshlanishi 1-betda

Mehnat migratsiyasi sohasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida doimiy faoliyat yurituvchi ekspertlar guruhini tuzish va zarur normativ-huquqiy bazani tayyorlashga kelishib olindi.

Shuningdek, ikki mamlakat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish va o‘zbek mahsulotlarining Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqishi uchun “Koper” porti infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini birgalikda o‘rganishga kelishib olindi.

Madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish masalalari muzokaralarning alohida mavzusi bo‘ldi. Ekologik turizmni, shu jumladan, tog‘li va qishloq hududlarida rivojlantirish bo‘yicha Sloveniya tajribasiga alohida qiziqish bildirildi.

Erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida ikki mamlakat hukumatlari tomonidan keng qamrovli “yo‘l xaritasi” qabul qilinadi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Sloveniya Bosh vaziri Robert Golobni o‘zi uchun qulay vaqtda O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Lyublyana shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Sloveniya Respublikasi Bosh vaziri Robert Golob Qo‘shma bayonot imzoladilar.

Ular huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bular:

- diplomatik pasport egalari viza talablaridan ozod qilish to‘g‘risida;
- ta‘lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risida;
- transport va logistika sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- “aqlii” shaharlarni boshqarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- standartlashtirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- suv resurslarini boshqarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;
- turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitimlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Milliy assambleyasi Raisi Urshka Klakochar-Zupanchich bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Sloveniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni, shu jumladan, ikki mamlakat parlamentlari darajasida yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda parlamentlararo almashinuvlar faollashgani mamnuuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley Assambleyasida Sloveniya Milliy assambleyasi komissiyasi raisi Predrag Bakovich ishtirok etdi. Ikki mamlakat parlamentlarida “do‘stlik guruhlari” tashkil etilgan.

Qo‘shma loyihalarni o‘rnatish va jadallashtirish uchun sohaviy qo‘mitalar darajasida parlamentlararo hamkorlik muhimligi qayd etildi.

Bundan tashqari, gumanitar hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashda, jumladan, madaniyat va kino kunlari, ko‘rgazmalar o‘tkazish, oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida akademik almashinuvlarni rivojlantirishda parlamentlarning ko‘magi zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, xalqaro parlament tashkilotlari doirasida tashabbuslarni muvofiqlashtirish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash kuchaytirildi.

Birinci O‘zbekiston — Sloveniya parlamentlararo forumini deputatlar va ekspertlar hamjamiyati ishtirokida Samarqand shahrida o‘tkazish taklif qilindi.

Parlamentlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musar bilan birgalikda qo‘shma biznes forumida ishtirok etdi.

Tadbirida ikki mamlakatning 100 dan ortiq yetakchi sanoat va savdo korxonalari rahbarlari hamda vakillari qatnashdi.

Sloveniya delegatsiyasi “KRKA”, “Duol”, “Emo Frite”, “Panvita”, “Medex”, “Tajfun Planina”, “Altado”, “UVC Solutions”, “Riko” va boshqa ko‘plab kompaniyalardan iborat bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida bugungi oliy darajadagi samarali muzokaralar O‘zbekiston — Sloveniya munosabatlarda, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda yangi sahifa ochganini ta’kidladi.

Jahon iqtisodiyotidagi hozirgi murakkab davrda o‘zaro savdoni ko‘paytirish, kooperatsiya ko‘lamini kengaytirish va milliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish muhim ekanini qayd etildi.

Ikki mamlakat iqtisodiyoti bir-birini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan tarmoqlarda Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturini qabul qilish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi. Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, elektrotexnika jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash, “yashil” energetika obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish shular jumlasidan.

Transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlilkn, shu jumladan, Sloveniyaning “Koper” porti imkoniyatlaridan foydalanish va ikki mamlakat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish orqali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda Sloveniya fuqarolari uchun joriy etilgan vizasiz tartib ishblarmonlik, gumanitar va sayyohlik almashinuvlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi uchrashuv ishtirokchilarining e’tibori-ni mamlakatimizda Yevropa kompaniyalari uchun tashkil etilayotgan maxsus sanoat parkiga qaratdi. U Sloveniya kompaniyalarini ushbu maxsus zonaning birinchi rezidentlari bo‘lishga taklif qildi.

Davlatimiz rahbari Sloveniya ishblarmon doiralari O‘zbekiston bilan o‘zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirishga qiziqish bildirib, aniq taklif va rejalarni ilgari surganlarini yuksak baholadi.

Yakunda Prezidentlar huzurida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy bitimlarni almashish marosimi bo‘ldi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Sloveniya Respublikasiga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNING ISHONCHLI DAVRIGA QADAM QO‘YILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Oliy darajadagi muzokaralar har ikki tomonning nafaqat siyosiy muloqotni faollashtirish, balki iqtisodiy, sarmoyaviy va gumanitar aloqalarni faollashtirishga tayyorligini namoyish etdi. Imzolangan hujjatlar va erishilgan kelishuvlar Toshkent va Lyublyana uzoq muddatli loyiha va tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan munosabatlarga yangi sifat bag‘ishlash istagidan dalolat beradi.

Sloveniya ommaviy axborot vositalari davlatimiz rahbarining O‘zbekiston — Sloveniya uchrashuvi arafasida va sammit doirasidagi tashrifini keng yoritdi.

Jumladan, tashrif arafasida ushbu mamlakatning yetakchi “Slovenia Times” gazetasi hamkorlikni yanada rivojlantirishning strategik istiqbollarni belgilab beruvchi tahliliy maqolani e’lon qildi.



Viktor Kim, Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasi Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy xodimi:

— O‘zbekiston Prezidentining Sloveniyaga tashrifi mamlakatning Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan munosabatlarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan konstruktiv tashqi siyosati natijasidir.

O‘zbekiston va Sloveniya o‘rtasidagi munosabatlar faol rivojlanishning dastlabki bosqichida. Biroq savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish, shuningdek, gumanitar, madaniy-ma’rifiy va boshqa sohalmi kengaytirish uchun salmoqli salohiyatga ega.

O‘zbekistonning o‘zaro ishonch va konstruktiv manfaatli yondashuviga asoslangan tashqi siyosatining shakllangan amaliyotini inobatga olgan holda, Prezident Shavkat Mirziyoyev va Sloveniya Prezidenti Natasha Pirs Musarning Lyublyana shahrida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvi ikki tomonlama munosabatlarda yangi sur’at va uqlarni ochishini oldindan aytish mumkin.

Filipp Vijers, tashqi siyosat bo‘yicha ekspert (Niderlandiya):

— Tashrif O‘zbekiston va Sloveniya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich bo‘ldi. U ikki davlatning iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, yangi ishblarmonlik sherikligini rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bozori bilan o‘zaro hamkorligini yanada chuqurlashtirish istagini alohida ta’kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashrifidan ko‘zlangan asosiy maqsad sanoat, farmatsevtika, elektrotexnika, “yashil” energetika, qishloq xo‘jaligi kabi muhim tarmoqlarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratgan holda o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni faollashtirishdan iborat.

Sloveniya Yevropa Ittifoqiga a’zo davlat sifatida O‘zbekiston uchun Yevropa bozoriga chiqishda strategik tramlpin sifatida ko‘riladi. Tashrif O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi tovar ayirboshlash barqaror o‘sib borayotgan bir sharoitda amalga oshirilmoqda. 2024-yilda O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksporti 1,7 milliard dollarga yetdi.

O‘zbekiston va Sloveniya o‘z oldiga to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, farmatsevtika, sanoat



uskunalari va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar kabi sohalardagi savdoni diversifikatsiya qilish orqali o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini 500 million dollarga yetkazish bo‘yicha ulkan maqsadni qo‘ygan.

O‘zbekiston Prezidentining Sloveniyaga tashrifi nafaqat O‘zbekiston — Sloveniya munosabatlarni mustahkamlash, balki O‘zbekistonning butun Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligini kengaytirishga qaratilgan sheriklikning yangi davri katalizatori sifatida ko‘rilmoqda.

Ishonchmi komilki, tashrif natijalari yangi sarmoyalarni jalb qiladi. Ekspert imkoniyatlarini yaratadi, shuningdek, innovatsiyalar va bilim almashishni rag‘batlantiradi. Bularning barchasi har ikki davlatga ham manfaat keltiradi hamda O‘zbekiston iqtisodiyotining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA



Shavkat ORTIQOV, O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOYdagi vakili

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 21-may kuni Budapesht shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitidagi keng qamrovli va aytish mumkinki, tarixiy nutqida jahon hamjamiyati e’tiborini yana bir karra bugungi kundagi eng og‘riqli, eng dolzarb xalqaro muammolarga qaratib, ularning yechimi bo‘yicha aniq tashabbuslarni ilgari surdi.

Shuningdek, tashkilot doirasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga to‘xtalar ekan, mamlakatimiz yetakchisi bu borada ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjudligini qayd etib o‘tdi va qator yangi takliflarni bildirdi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston jahon ahlini doimo tinchlik-totuvlikka, qardoshlik va ahillikka chaqirib, har qanday mojaroni diplomatiya va muzokaralar yo‘li bilan hal qilish tarafdori bo‘lib kelgan. Turli davlatlar bilan hamkorlik va do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Bu tamoyil Prezidentimiz boshchiligida olib borilayotgan tashqi siyosatimiz bog‘ mohiyatini tashkil etadi.

Dono xalqimiz “Bir kun janjal bo‘lgan uyda qirg kun baraka bo‘lmaydi”, deb bejiz aytgan. Ushbu purma’no hikmat dunyo sahnasida kuzatilyotgan hozirgi murakkab vaziyat va uning oqibatlarini anglatuvchi bog‘iy o‘g‘it, desak mublag’a bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘zbek eli nafaqat o‘z yurtda, balki jahonda tinchlik va osoyishtalik hukm surishini istaydigan, bu bebaho ne’matni yuksak qadrlaydigan oqko‘ngil va bag‘rikeng xalq. Osoyishtalik bor joyda esa baraka, ishda unum bo‘ladi.

Gap ezgulik haqida borar ekan, ta’kidlash joizki, bunda madaniy-gumanitar soha nihoyatda muhim o‘ringa ega. Oxirgi sakkiz-to‘qiz yil ichida yurtimizda madaniyat, adabiyot va san’atni rivojlantirish bo‘yicha misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirildi. Turli xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatildi. Ulardan biri Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOYdir.

Mazkur tashkilot turkiy tilli mamlakatlar o‘rtasida madaniy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish va kengaytirish maqsadida 1993-yil 12-iyulda tuzilgan. O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga to‘laonli a’zo bo‘lib kirganidan so‘ng TURKSOY faoliyati doirasidagi aloqalar ham yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 10-noyabrda “TURKSOY tuzilmasi va faoliyat ko‘rsatish prinsiplari to‘g‘risidagi Shartnomani (Olmaota, 1993-yil 12-iyul) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonuni bilan mamlakatimiz mazkur tashkilotga to‘laonli a’zo bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va Turkmaniston

tashkilot a’zolari hisoblanadi. Tashkilot Bosh kotibiyati esa Turkiyaning Anqara shahrida joylashgan.

Keyingi yillarda O‘zbekiston turkiy mamlakatlar doirasidagi tadbirlar va loyihalarda faol qatnashmoqda. Yurtimizda bu borada madaniyat va san’at kunlari, yoshlar va tear festivallari, ijodiy forumlar o‘tkazilmoqda. Ilmiy-ma’rifiy anjumanlar, turkiy tillar va adabiyotlari rivojiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalarda yurtimiz olim va ijodkorlari muntazam ishtirok etmoqda. Ana shu hamkorlikning amaliy samarasi sifatida yurtimizda “Turkiy adabiyot dardonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumi nashr etilgani, unga O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlaridan jami 450 dan ziyod mumtoz va zamonaviy shoir, adib va mutafakkirlarning asarlari kiritilgani diqqatga sazovor.

Davlatimiz rahbari ushbu bebaho ma’naviy xazinani Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo va kuzatuvchi davlatlar tillarida ham chop etish taklifini ilgari surgan edi. Bu juda muhim tashabbus bo‘lib, amalda qardosh ellarimizni, avvalambor, yosh avlodlarni o‘zaro yaqinlashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov yaqinda Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan II Turkiy dunyo madaniyati forumida ishtirok etgan ilm ahlini, tarjimonlarni bu xayrli ishga munosib hissa qo‘shishga chorladi.

Tashkilot bilan hamkorlikda Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, Xalqaro maqom san’ati anjumani va boshqa nufuzli san’at bayramlari yuqori saviyada o‘tkazilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining ijodiy jamoalari turkiy mamlakatlarda tashkil etilayotgan tadbirlarda faol qatnashmoqda. Bundan ikki yil muqaddam Navoiy shahrida bo‘lib o‘tgan TURKSOY yozarlar birligining birinchi yig‘ilishi hamda “Mumtoz she’riyat” deb nomlangan xalqaro festival ham turkiy adabiyot olamidagi katta aks sado berdi.

YANGI O‘ZBEKISTONDAGI DINIY-MA’RIFIY ISLOHOTLAR MISRNING NUFUZLI NASHRI NIGOHLAR

Kuni kecha Misrning yetakchi nashrlaridan biri “Savtul-Azhar” (Al-Azhar ovozi) gazetasi “Yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli formulasi” nomli maqolani e’lon qildi.



Maqolada Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori o‘rinbosari Sh.Islomovning ulamolar yurti bo‘lmish O‘zbekistonda Prezident tashabbuslari bilan diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga bag‘ishlangan fikrlari batafsil yoritilgan.

Jumladan, unda Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish hamda diniy vaziyat barqarorligini ta’minlash borasida erishilayotgan muvaffaqiyatning asosiy omillari haqida so‘z boradi. “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohada davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi konsepsiyaning qabul qilining ushbu sohada islohotlarning yangi sifat bosqichini boshlab bergani ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Prezidentining diniy sohada qabul qilinaidigan har qanday normativ-huquqiy hujjati shoshma-shosharlikka berilmassdan, o‘zbek xalqining manfaatlaridan kelib chiqib qabul qilish bo‘yicha tashabbuslariga yuqori baho berilgan.

Muallifning fikricha, diniy sohada barqaror siyosatning tayyor modelini chetdan import qilib bo‘lmaydi. Albatta, bu borada xalqaro tajriba muhim ahamiyatga ega. Lekin har qanday tajriba milliy-diniy qadriyatlarni hurmat qiladigan, O‘zbekistonning ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali sharoitini hisobga oladigan, eng asosiy, milliy manfaatlariga mos bo‘lishi o‘ta muhim.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Prezidenti xalqaro maydonda islomning ezgulik, ilm-ma’rifat va bag‘rikenglikka asoslangan ta’limotini ochib berish, ekstremizm, terrorizm va islomofobiya qarsi kurashishga qaratilgan global g‘oya va tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, 2016-yilning 18-oktabrida Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasi yig‘ilishida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish taklifi bildirildi.

2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etib, davlatimiz rahbari xalqaro maydonda islom diniga nisbatan kuzatilyotgan bir yoqlama salbiy munosabatga “Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorda qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon muros qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”, deya o‘zining qat’iy pozitsiyasini ifoda etdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida O‘zbekiston Prezidenti jahon hamjamiyatiga O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish loyihasi haqida so‘zlad. Darhaqiqat, Islom sivilizatsiyasi markazi o‘z g‘oyasi va ahamiyatiga ko‘ra betakror loyiha bo‘lib, islom dinining ilmiy-ma’naviy boyligi, bunyodkorlik salohiyatini namoyish etishga qaratilgan.

Mamlakatimizda TURKSOYning 30 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar ham yuksak darajada tashkil etildi.

Ma’lumot o‘rinda aytish lozimki, 2012-yildan buyon har yili TURKSOYga a’zo mamlakatlarning tarixiy shaharlaridan biriga “Turkiy dunyo madaniyat poytaxti” maqomi beriladi. O‘tgan davr mobaynida Ostona, Eshkshahar, Qozon, Marv, Sheki, Turkiston, Kastamonu, O‘sh, Xiva, Bursa, Shusha, Anau va joriy yilda Aqtul shunday maqomga ega bo‘ldi va bu qadimiy, go‘zal shaharlarining shon-shuhratini yanada oshirdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan turkiy madaniyatni targ‘ib qilish, tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta’minlash va ishonchni mustahkamlash, turkiy xalqlar o‘rtasida turli sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qo‘shgan alohida hissasi uchun siyosat, ilm-fan, tibbiyot, adabiyot va san’at sohalarini namoyandalarni rag‘batlantirish maqsadida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’ sis etilgani madaniy hayotimizdagi muhim voqea sifatida doimo katta g‘urur bilan tilga olinadi.

Har ikki yilda bir marta tophirladigan ushbu mukofot ilk bor 2022-yilda qirg‘iz yozuvchisi va jamoat arbobi marhum Chingiz Aytmatovga berilgan edi.

Bu yil mukofotga taniqli turk biokimyogari, Nobel mukofoti sovrindori, O‘zbekiston Milliy universiteti faxriy doktori Aziz Sanjar sazovor bo‘ldi. Budapeshtdagi Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida “Turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hisssasi uchun” Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotini tophirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Aziz Sanjami samimiy tabriklab, nufuzli mukofotning ilm-fan arabogiga tophirlilishi turkiy dunyo olimlari, jumladan, yoshlarni yangi maralarni zabt etishga ilhomlantirishini alohida ta’kidladi.

Yuqorida bejiz TURKSOY faoliyati haqida so‘z yuritganimiz yo‘q. Mamlakatimiz yetakchisi Budapeshtdagi norasmiy sammitdagi nutqida davlatlarimiz o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY alohida o‘ringa ega ekanini ta’kidlab, jumladan, yana bir muhim taklifni ilgari surdi. “Bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarimizni yangi bosqichga olib chiqish va TURKSOYning nufuzini yanada oshirish uchun uning faoliyati va tuzilmasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur, deb hisoblayman. Shu maqsadda diniy ta’lim madaniyat vazirlarimizga Boku sammitiga qadar tegishli takliflar ishlab chiqish vazifasini tophirsak, to‘g‘ri bo‘ladi, deb o‘ylayman”, dedi davlatimiz rahbari.

Bu juda muhim tashabbusdir. Chunki vaqt va zamon o‘tgani sayin har qaysi soha yoki tashkilot faoliyatini takomillashtirishga ehtiyoj tug‘iladi. Shu ma’nod, Prezidentimiz tashabbusining amaliy ro‘yobi TURKSOYning o‘rni va mavqeyini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Anqara

O‘ZA



MILLAT FIDOYILARI

QALBLAR TITRAR, JO‘SH URAR G‘URUR VA ULG‘AYAR YOVQUR QAHRAMONLAR



Salim DONIYOROV

Boshlanishi 1-betda

Tinchlikni ta'minlay oladigan aql-idrok jamiyatdagi barchaga birdek daxldordir. Uni ma'lum qatlam, jamoaga yoki alohida shaxslarga qarata aytish xato, nazarimizda. Keling, buni bir oz soddaroq tushunib olsak. Aql bilan ish ko'radigan jamiyatda hamma ish joy-joyida bo'ladi. Masalan, mahalla raisi o'z vazifasini to'la va to'g'ri bajaradi. Fuqaro ham o'z haq-huquqi bilan birga majburiyatlarini tan oladi va shunga munosib tarzda ishlaydi. Umuman, jamiyatda birdamlik, yagona xalq tushunchasi ustuvor bo'ladi. Ana shunday ichki ahillik tashqi ta'sirlarni zaiflashtiradi. Bu dunyo tarixi, mamlakatlar taqdiri misolida ko'p bora o'z tasdiq'ini topgan. Bunday ahillikning tayanch ustuni esa rozilikdir! Shu bois, yangi O'zbekistonda xalqimizni rozi qilish, "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyaga asoslangan o'z tanlangan. Bugungi o'zgarishlar, olib borilayotgan islohotlar zamirida ana shunday hayotiy haqiqat bor. Shu o'rinda mazkur yo'l e'tibor qaratish zarur bo'lgan yana bir jihat mavjud. Bu ham bo'lsa, xalqni bugunidan rozi qilish barobarida kelajagiga katta ishonch berishdir. Demak, yoshlar tarbiyasi, ularning komil inson bo'lib ulg'ayishiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Mamlakatimiz yetakchisi G'alaba bog'ining mazmun-mohiyati, xalqimizning qahramonligi haqida fikr bildirib: **"Bu ulug'vor majmua — xalqimizning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rsatib turadigan qutlug' maskan, ulug' ziyoratgohdir. Ayni vaqtda bu farzandlarimizga ajdodlarimiz jasoratidan saboq beradigan o'ziga xos tarbiya o'chog'i, desak, to'g'ri bo'ladi. Eng muhimi, ushbu bog' xalqimizning Vatan himoyasi yo'lidagi qahramonlik an'analari barhayot ekani, ularni har bir avlod sharaf bilan davom ettirishi zarurligini barchamizga eslatib, ta'kidlab turadi"**, dedi.

Darhaqiqat, barcha zamonlarda ana shunday qahramonlar jamiyatga umid bag'ishlagan. Mamlakat tarixini yaratgan. Bu bizning shonli o'tmishimizdan ham ma'lum. Endi yorug' kelajak haqida qat'iy qarorga kelgan ekanimiz, yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashga ahamiyat qaratishimiz shubhasiz. Bunda, ayniqsa, yaqin o'tmishimizdagi qahramonlarni eslash, ularning xotirasini abadiylashtirish, hurmatini joyiga qo'yish ham juda muhim hisoblanadi. Bilamizki, mustaqillik yillarida Vatanimiz sarhadlarini daxlsiz saqlash, bugungi tinch va osoyishta hayotni himoya qilish yo'lida bir qancha harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish

oilalari va ularning o'zlari haqida yangi asarlar, kitoblar yozishga undadi. Bu ijodkor, ziyolilarga o'zgacha ruh berdi. Demoqchimizki, bu qahramonlar doim qalbimizda yashab kelayotgan edi. Faqat ularni ma'lum bayramlar arafasidagina eslayotgan edik. Bunday chaqiriqdan so'ng qahramonlarimiz va ulardan ko'ra kam qahramonlik ko'rsatmayotgan oilalarini keng jamoatchilikka ham yaqindan tanishtiramiz. Bu yo'lida "Millat fidoylari" monumenti qahramonlar haqida yaratilajak asarlarning eng birinchisi va betakror namunasi bo'ldi. Chunki u inson qadrini ulug'lashga qaratilgan va xalqimizning xohish-istaklarini o'zida jamlagan. Fikrimizni muhtaram Prezidentimizning quyidagi gaplari tasdiqlaydi: **"Men 2023-yil mart oyida Surxondaryoda sizlarning ko'pchiligingiz — ana shunday marhum askar va ofitserlarimizning oila a'zolari, yaqinlari bilan uchrashganman, fikr va takliflaringizni eshitganman. Mana shu qahramonlarimiz xotirasiga ham yodgorlik o'rnatask, degan orzu, kerak bo'lsa, armon meni doim o'yantirib kelardi. Bu nafaqat mening, balki ana shunday botir va dovyurak ana yurt posbonlarini tarbiyalagan sizdek otalarning, qolaversa, qahramonlarimizning ayollari va farzandlarining, butun xalqimizning orzusi edi, desak, albatta xato bo'lmaydi"**.

Shuning o'ziyoq yangi O'zbekistondagi islohotlar yurtdoshlarimiz fikri, ularning orzulari ro'yobi yo'lida amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Bu jamiyat birdamligiga, yagona xalq bo'lib olg'a intilishimizga mustahkam zaminidir.

Shu o'rinda yana bir voqea haqida aytish zarur. Kuni kecha aholining taklif va istaklarini inobatga olgan holda, Prezidentimiz topshirig'iga ko'ra, avtomobil yo'llarida harakatlantirish tartibini yanada takomillashtirish, haydovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda ularni qiyinab kelayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan Hukumat qarori qabul qilindi. Biz hozir ushbu qarorni sharhlash niyatida emasmiz. Ammo fikrimizga uyg'un bo'lgani uchun bitta taqqosni aytib o'tmasak bo'lmaydi. Yo'l'dagi chiziqlarni bosish va buning uchun jarima to'lash ko'p hollarda haydovchilar e'tiroziga sabab bo'layotgandi. Shu bois, mazkur qaror qabul qilindi. Xalqimizning istaklari hisobga olindi.

Tinchlik — eng katta boylik

Ikkinchi anglam. Bog' unga quyosh nuri bilan birga o'z vaqtida ush kelib turgani bois yashnaydi. Daraxt quyoshning chiqishi tabiiy jarayon ekanini biladi. Chunki u har kuni botib, yangi kunda yana ko'rinish beradi. Ammo ular suv bog'bonning qanchalik mashaqqatli mehnati evaziga kelayotganini bilavermaydi. Negaki bu jarayon daraxtlar uchun begona. Tinchlik ham xuddi o'sha suvga o'xshaydi. Usiz harot o'z izidan chiqib ketadi. Bugun bunga dunyo mamlakatlari misolida guvoh bo'lib turibmiz. Demak, ozgina mulohaza qilgan, hayotni chuqurroq o'rganishga kirishgan inson borki, tinchlik deb atalmish bebaho boylik o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmasligini yaxshi his etadi. Davlatimiz rahbari ana shu tinchlikni asrash borasida har birimiz nafaqat bilishimiz, balki bu zahmatni, uning qadrini yuragimizdan his etishimiz uchun juda muhim bo'lgan bitta fikrni aytadi: **"Hayot bor ekan, butun jamiyatda**



topiladi. Oddiy oilaviy marosimlar bilan bog'liq o'zriqli nuqtalarimiz hamon malham topmadi. Yoki yoshlar orasida otasining puliga olingan mashinani qonun-qoidalariga amal qilmay, o'zgalar hayotini xatarga qo'yib boshqarish avj olgani ham achchiq haqiqat. Ijtimoiy tarmoqdagi ayrim yoshlar, hatto yoshi ulug'larning ham ba'zi chiqishlarini kuzatib afsuslanasiz. Bunday kimsalar milliylik, o'zlik degan tushunchalarni unutib qo'yayotgani kishini tashvishga soladi. Bular bizga yarashmaydigan ishlardir. Bugungi erkin hayot berayotgan imkoniyatlarni to'g'ri qabul qilish,

ilmda ekanini o'z hayot yo'li bilan isbotlab bermoqda.

Yuqorida 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida bo'lib o'tgan uchrashuvda davlatimiz rahbari nutq so'zlagani yoki muloqot qilgani emas, aynan fikrlari bilan o'rtoqlashganiga alohida urg'u berdik. Shundan kelib chiqqan, yana bir jihatga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Davlatimiz rahbari Maftuna Ochilova haqida aytar ekan shunday dedi: **"Oddiy bir qizimiz shu gaplarni yig'lab-yig'lab aytganida, mening ko'nglim ham beixtiyor boshqacha bo'lib ketdi. Buni**



shunga yarasha jamiyat bo'lib shakllanish zarur. Prezidentimiz bejiz **"Erkinlik va ozodlikning, tinchlikning qadriga yetish — bu oson emas. Bu — o'ta og'ir va mashaqqatli ish. Buning uchun ham ilm, tarbiya, madaniyat va iroda kerak. Shu bois, men "biz hali izlanishdamiz" degan fikrni ko'p takrorlayman"**, degani yo'q.

Ajdodlarimiz aytmiş, ilm — najotdir, degan hayotiy haqiqatning bugungi qiyofasi yuqoridagi fikrda to'ralig'icha o'z aksini topgan. Ha, najot yo'li ilm va tarbiyadadir.

Prezidentimiz G'alaba bog'idagi uchrashuvda bildirgan fikrlarida yaxshi tarbiyasi sabab ana shu ilmga intilib, mamlakatdagi islohotlar sabab yutuqqa erishgan yoshlarni namuna qilib ko'rsatdi. Ayniqsa, urchanchlik Maftuna Ochilova va unga tarbiya bergan onasi yangi O'zbekistondagi islohotlar oddiy insonlarning orzusini amalga oshirishga qaratilganini yana bir bor tasdiqladi.

Maftuna Ochilovani onasi yolg'iz tarbiya qilgan ekan. Ayol ming bir mashaqqatlar evaziga oilasini qashshoqlikdan olib chiqqan. Ayni paytda bolalarini kitobga, ilm olishga qiziqtirgan. Maftuna onasidan ibrat olib, tinmay o'qib-o'rgangan. Natija quvonarli. Kitobxon yoshlar tanlovida u birinchi o'rinni egallab, katta yutuq — avtomobilni o'lg'a kiritdi. Bu ham bo'lsa, yurtimizda ilm qadrlanayotgani, bu borada adolat bosh mezon ekanidan dalolat. Shu o'rinda Hazrat Navoiyning: **"Xush ul kishi kim, adl sifoti bo'lmish"**, ya'ni "Yaxshi kishi adolati kasb qilib oladi", degan hikmatini eslab o'tmoqchimiz. Maftuna yutug'i sabab, avvalo, o'ziga ishonchi ortdi. Qolaversa, boshqa tengdoshlariga ham xuddi shunday so'nmas tuyg'u ulasha oldi. Muhimi, bugun yoshlar, umuman, barcha telefon, internet kabi o'tkinchi narsalarga ko'p chalg'imasdan olg'a intilsa, katta yutuqlarni o'lg'a kiritishi mumkin ekanini isbotladi. Shu ma'noda, Maftuna Ochilovaday qizlar va ularning tarbiyachisi bo'lgan onalarni, hech shubhasiz, xalqimizning bugungi qahramonlari, desak bo'ladi. Ular kitob naqadar buyuk mo'jiza va sinovli dunyodagi najot yo'li

men ham so'z bilan ifoda etib berolmayman. Qarang, ezigulik qanday buyuk, qanday qudratli kuch!"

Bugun yangi O'zbekiston yoshlari ana shunday qudratli kuchdan quvvat olayotgani ayni haqiqat.

Najot yo'lining mustahkam ustuni

Uchinchi anglam. May oyidagi yana bir katta voqea Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan maktab ta'limi yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'ldi. Ushbu yig'ilish har qanday mamlakat taraqqiyoiti sog'lom va bilimiy avlodga bog'liq degan nihoyatda muhim fikr atrofida bo'lib o'tdi. Ya'ni biz tanlagan yo'l — yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasining ro'yobi sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga bog'liq ekan va buning uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarurligiga qaratildi.

Aslida, islohotlarning ilk kunidanoq ta'limga katta e'tibor berilmoqda. Oddiy misol, shu vaqtgacha maktab o'qituvchisi ijro hokimiyatining tekin ischi kuchiga, fermerning paxta terimchisiga aylanib qolgan edi. Sobiq tuzumdan meros bunday illatdan uzoq yillar qutula olmadik. Yangi O'zbekistonda o'qituvchining hurmatini joyiga qo'yish borasida amaliy ishlar qilindi. Bugun 1000 dollar miqdorida maosh olayotgan o'qituvchilarni soni oshib borayotgani ham fikrimiz dalili. Bundan tashqari, oxirgi 7 yilda maktabgacha va maktab ta'limi uchun mablag' 7 karra oshirildi. Joriy yilda mazkur sohaga 60 trillion so'm yo'naltirilayotgani ta'kidlandi. Birgina bog'chalar misolida oladigan bo'lsak, keyingi yillarda qamrov 3 karra oshib, 78 foizga yetgan. Bu faqat bolalarga ta'lim berish kuchayganini anglatmaydi. Balki onalar bandligi, ishlamagan taqdirda ham o'zi uchun yetarlicha vaqt ajrata olishi degani. Axir olis qishloqlarda ham bog'chalar ochilgach, qishloq ayollarining hayoti tubdan o'zgardi. Sohaga qaratilgan jiddiy e'tibor sabab bog'cha tarbiyachilari oyligi 65 foizga oshib, maktab o'qituvchilari maoshiga tenglashdi. Yangi o'quv yilidan

maktab direktorlari, o'rinbosarlari va bog'cha mudirlarining ish haqi 7-10 million so'mdan oshadi. Shuningdek, mazkur yig'ilish sohada tub o'zgarishlarning yangi davri boshlanganiga dalolat bo'ldi. Ya'ni endi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi butun tizimi bilan "favqulodda to'qson kunlik" tartibida ishlashga o'tadi. Chunki ta'lim sohasida hamon bajarilishi zarur bo'lgan ishlar bisyor. Yurtimizda o'qituvchilar obro'si oshib borishi, maktab va bog'chalarning texnik bazasi boyishi bilan birga malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Zero, sifati ta'limni faqat yuqori malakali pedagoglar bera oladi. Shu bois, sohani tubdan yaxshilash borasida qator tashabbuslar ilgari surildi. Mas'ullarga tegishli vazifalar yuklandi. Xususan, barcha pedagogika oliyoghlari faoliyati tubdan o'zgaradi. Bu oliyogha Yangi O'zbekiston universitetidagi kabi xalqaro boshqaruv tizimi tatbiq etiladi.

Bolalar tarbiyasi va ta'limi haqida yana bir haqiqat — tub o'zgarish bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish borasidagi yangilik bo'ldi. Ya'ni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Bu juda katta yangilik va muhim voqea. Zero, donishmand Seneka **"Ma'naviy quilkidan sharmandaliroq mutelik yo'q"**, degan edi. Global dunyomizda ma'naviy quilkil targ'iboti tobora avj olib borayotgani ayni haqiqat. Yangi markaz ana shu kurash maydonida bayrog'imizni baland ko'tarishi, yoshlarimizning ona Vatanga mehmuhabbat bilan ulg'ayishida xizmat qilishi zarur. Shu ma'noda, yangi markaz oldida ulkan mas'uliyat va sharafli yo'l turibdi.

Yana bir voqea. 21-may kuni Budapest shahrida Turkiy davlatlari tashkiloti norasmiy sammiti bo'lib o'tdi. Unda davlatimiz rahbari nutq so'z'ladi. Ushbu nutq O'zbekiston barcha nizolar tinch va diplomatik yo'l bilan, adolatli tarzda hal etilishi tarafdori ekanini bildirdi. Ayni shu global darajadagi ziddiyatlar davrida iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ana shu o'rinda hozirgi fikrlarimizga hamohang bo'lgan yana bir jihat tilga olindi.

Ma'ni Prezidentimiz: **"Jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan, barchamizning faxr-iftixorimiz bo'lgan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganish va dunyoga tarannum etish biz uchun sharafli va mas'uliyatli vazifadir. Shu bois, ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlod uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish niyatida "Turkiy dunyo xartiyasi"da "Ilmdan o'zga najot yo'q" degan yuksak axloqiy g'oyani muhrlab qo'ydik"**, dedi. Ana shuning o'ziyoq yangi O'zbekiston ma'rifatga yo'g'rilgan adolati yo'lni tanlaganini va buni xalqaro maydonda keng targ'ib etayotganini ko'rsatadi.

Munosiblik mas'uliyati

To'rtinchi anglam. Navbatdagi fikrimizni yana bir muhim voqea bilan boshlamoqchimiz. Ushbu oy avvalida davlatimiz rahbari tibbiyotning birlamchi bo'g'ini va ixtisoslashgan massasalarga xizmatlar sifatini yanada oshirish, dori vositalari iste'molini tartibga solish hamda tibbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazdi. Bu haqda gazetamiz sahifasida hurmatli mutaxassislarimiz, jurnalistlar bir necha bor chiqish qiladi. Shu orqali, uning mohiyatini ochib berishga urindik. Hozir bu borada ko'p fikr aytib vaqtningizni olishdan yiroqmiz. Ammo maqolamizga bosh mavzu bo'lgan xalqni rozi qilish va inson qadrini ulug'lash yo'lidagi bitta jihatni eslab o'tmoqchimiz.

Endi tumanlardagi poliklinikalarda oilaviy shifokorning bazaviy oyligi 500 dollar,

9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida bo'lib o'tgan uchrashuvda davlatimiz rahbari nutq so'zlagani yoki muloqot qilgani emas, aynan fikrlari bilan o'rtoqlashganiga alohida urg'u berdik. Shundan kelib chiqib, yana bir jihatga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Davlatimiz rahbari Maftuna Ochilova haqida aytar ekan shunday dedi: **"Oddiy bir qizimiz shu gaplarni yig'lab-yig'lab aytganida, mening ko'nglim ham beixtiyor boshqacha bo'lib ketdi. Buni men ham so'z bilan ifoda etib berolmayman. Qarang, ezigulik qanday buyuk, qanday qudratli kuch!"**.

hamshiraniki 300 dollar ekvivalentida bo'ladi. Oilaviy shifokor va hamshira malaka sertifikatiga olsa, yana ustama to'lanadi. Agar ular mahallada yurib, surunkali kasali borlarga vaqt ajratsa, ularni kasallik bilan yashash va uni boshqarishga o'rgatsa, onkologik, diabet, insult, infarkt kabi kasalliklarni erta aniqlab, og'ir asoratlarning oldini olsa, bularning hisobiga tez yordam va stasionarga murojaatni qisqartirsa, shifokorga yana 500 dollar, hamshiraga esa qo'shimcha 300 dollar beriladi.

Shu o'rinda kichik mulohaza. Ko'p hollarda sog'lom turmush tarziga amal qilmaymiz. Oqibatda aksariyatimiz kasalliklarga ko'p yo'liqamiz. Targ'in o'sha turmush tarzida davom etib, bu kasalliklarni diabet, insult, infarkt kabi holatlargaacha olib boramiz. O'zimiz o'zimizda o'zgarish kam kuzatilayotgani achchiq haqiqat. To'g'ri, keyingi vaqtlarda sport bilan shug'ullanadiganlar safi oshib boryapti. Lekin bu hali qoniqli darajagacha yetgani yo'q. Yuqorida aytilgan yangilanishlar ana shu o'zgarish qiyin kechayotgan jamiyatni isloh etishga qaratilgan. Zero, bu o'zgarishlar nafaqat kasallikning oldini olishga, balki sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga ham qaratilgani bilan ahamiyatli.

O'rni kelganda bitta hayotiy fakt. Kuni kecha ijtimoiy tarmoq faollaridan biri Isomiddin Po'latov tez yordam chaqirgani va u vaqtda yetib kelib, yaxshi xizmat ko'rsatgani haqida yozdi. Muallif aytishicha, tez yordam kelib ketgach, yagona begona qamqadan qo'ng'irlok bo'lgan. Ko'rsatilgan xizmat sifati, uni yanada yaxshilash borasida biron taklifi bor-yo'qligi haqida so'ragan. Keyin "Tez yordamda borgan tibbiyot xodimlari hududiy poliklinikaga murojaat qilishingizni eslatdimi?" degan savol berilgan. Faolimiz ijobiy javab bergach, ular sog'liq tilab xayrlashgan.

Bu yerda ikkita muhim jihat bor. Birinchisi, tez yordam sifati amalda yaxshilanayapti. Ikkinchisi, yuqorida qayd etilgan yig'ilishda tez yordam kasalxonaga aylanib qolgan tanqid qilingan edi. Mas'ullarning hududiy poliklinikaga murojaat qilish eslatmasi va bu takror tekshirib ko'rilib shi xalqimiz salomatligini ta'minlash borasidagi yangi vazifalarga allaqachon kirishilganini bildiradi.

Endi maqolamiz avvalidan to'liq oxirigacha aytilgan o'zgarishlarni bir qor yodga oling. Ularda bitta mushtaraklik bor. Bu ham bo'lsa, yangi O'zbekistonni bunoyd etish yo'lida xalqimizni rozi qilish, yuksak ma'naviyatli, betakror ilmga ega va sog'lom jamiyatni qurishga qaratilgan islohotlardir.

Yon-atrofni kuzating. Kundalik hayotingizni, farzandlaringiz tarbiyasiga qanchalik vaqt ajratayotganingizni xolis tahlil qiling. Global dunyodagi o'zgaruvchan sharoitda tinchlikni asrashda mashaqqatli yumushga qanchalik hissa qo'sha olyapman degan savolga javob izlang. Ana shunda qalbingizning tub-tubida Vatanimizga munosib farzand bo'lish mas'uliyati yanada jo'sh uradi. Mustaqillik — buyuk ne'mat. Uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning muqaddas burchimiz. Hozirgi tahlikali zamonda bu ne'matni asrashning yagona yo'li ma'rifatli jamiyatdir. Bunday jamiyat o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Uning har bir a'zosi faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi. Shu tariqa ilm olishga, kitob o'qib, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda yetakchilik qiladi. Muhimi, **yagona Xalq, bitta Vatan bo'lib harakatga keladi.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida biz tanlagan yo'lning bosh maslasi va ortga qaytmaslisi mohiyati ana shu hayotiy maqsad bilan quvvatlanib turadi.



organlarining xodimlari mardlaracha halok bo'lgan. Ular mustaqil O'zbekistonning tinchligi yo'lida jonini qurbon qilgan qahramonlardir. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz mustaqil O'zbekistonning ana shunday qahramonlari borligini bilishi va ularni hech qachon unutmasligi zarur!

G'alaba bog'idagi yangi yodgorlik — **"Millat fidoylari"** monumenti aynan o'sha qahramonlarni hayotga qaytardi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, ushbu monumentda ularning nomi zarhal harflar bilan muhrlab qo'yildi. 196 nafar marhum harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining har biri haqida ushbu yodgorlik ziyoratiga kelganlar ma'lumotga ega bo'ladi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari shoir, adiblar va biz, jurnalistlarni qahramonlarimiz

albatta har jabhada kurash ketadi. Hozirgi kunda biz ham go'zal, fayzli va farovon hayot uchun, tinchlik uchun kurashaypmiz. Bu kurash har kuni, har daqiqada davom etmoqda".

Ochiq tan olish kerak. Bu kurash hech qachon to'xtamagan va uning yakuni yo'q. Hayotning qoidasi shu. Ammo u davr, xalqaro maydondagi jarayonlarga qarab, jamiyatning ahvolidan kelib chiqib bir oz yengil va aksi bo'lishi mumkin. Hozirgi global o'zgarishlar davri bizga doimgidan ham hushyor bo'lish talabini qo'yymoqda. Demak, bunday vaqtda jamiyat birdamligi va oqilligi bilan vaziyatni imkon qadar yumshatishga xizmat qilishi shart. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining yuqorida keltirilgan fikrlari biz uchun ogohlilik signali bo'lishi lozim. Ya'ni bugun to'qlikka sho'xlik qilayotganlar ham, afsuski, jamiyatimizda

Nuqtayi nazar

JSTga A‘ZO BO‘LISH

DUNYO BOZORIDAGI O‘RNIMIZNI MUSTAHKAMLAYDI

Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Chunki bu jarayon nafaqat mamlakatning xalqaro savdo tizimiga to‘laqonli integratsiyalashuvini ta’minlaydi, balki zamonaviy global iqtisodiy makondagi ishtirokini mustahkamlaydi. Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirib, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini keskin kengaytirish orqali milliy rivojlanishning yangi bosqichiga yo‘l ochadi. Shu bois, JSTga a‘zolik O‘zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy siyosati va barqaror taraqqiyot strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida dolzarb.

Joriy yil 14-may kuni davlatimiz rahbari huzurida JSTga a‘zo bo‘lish jarayoni va uni jadallashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha o‘tkazilgan taqdimotda shunga alohida e’tibor qaratildi. Jahon savdo tashkilotiga a‘zolik O‘zbekiston uchun keng qamrovli strategik imkoniyatlarni ochadi. Bu, avvalo, xalqaro savdo tizimining teng huquqli a‘zosi sifatida mamlakat eksport salohiyatini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish hamda yangi bozorlarga kirib borishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosatda barqarorlik, investitsiya oqimi, ko‘p tomonlama savdo shartnomalaridan foydalanish, texnologik ko‘chirmalar va ilmiy-ta’limiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023-yildan boshlab JSTga a‘zolik masalasi strategik vazifa sifatida belgilanib, alohida nazoratga olingan. Shu maqsadda xalqaro savdo portlariga keng yo‘l ochish, xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar, kooperatsiyalar va klasterlar faoliyatini kengaytirish orqali eksport hajmini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rib kelinmoqda.

Shu kungacha JSTga a‘zo bo‘lish yo‘lida O‘zbekiston tomonidan qator muhim ishlar bajarildi. Jumladan, ikki tomonlama muzokaralar bosqichida 24 davlat bilan savdo-iqtisodiy hujjatlar kelishildi. Mintaqaviy va global iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik mustahkamlandi. JSTga a‘zo bo‘lish

jarayonida O‘zbekiston milliy qonunchiligini tashkilot talablariga muvofiqlashtirish maqsadida 13 ta yangi qonun, Prezidentning 10 ta farmoni va qarori, Vazirlar Mahkamasining 19 ta qarori hamda 10 ta idoralararo normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Bundan tashqari, bojxona tartib-qoidalarini, eksport-import mexanizmlari va intellektual mulkni huquqiy himoya qilish tizimi bosqichma-bosqich JST standartlariga moslashtirildi. Mamlakatda davlat ulushi mavjud bo‘lgan 6 ta yirik korxonada ekskluziv huquqlar bekor qilinib, erkin va sog‘lom raqobat uchun shart-sharoitlar yaratildi.

JSTga a‘zolik nafaqat savdo hajmini oshirish, balki qo‘shimcha qiymat zanjirlariga tarmoqlanish orqali minglab yangi ish o‘rinlari ochilishiga sabab bo‘ladi. Logistika infratuzilmasini kengaytirish, ilm-fan va ta’lim integratsiyasini kuchaytirish orqali kompleks ijtimoiy-iqtisodiy o‘rnatishga turki beradi.

Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish O‘zbekiston uchun tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish barobarida ichki iqtisodiy boshqaruv tizimini tubdan institutsional isloh qilishda muhim o‘rin tutadi. Xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlab, xalqaro texnologiyalar, moliyaviy resurslar va ilg‘or boshqaruv tajribalarining ichki bozorga jadal kirib kelishini ta’minlaydi. Pirovardida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ilm-fan va ta’lim tizimi takomillashib, logistika, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari zamonaviylashuviga keng yo‘l ochiladi. Bular “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga ham mos. Unda milliy iqtisodiyotning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, uning global ishlab chiqarish va qo‘shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, erkin bozor tamoyillarini amalga tatbiq etishni kengaytirish kabi vazifalar belgilab olingan.

O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotining 2026-yilda Kamerunda bo‘lib o‘tadigan 14-vazirlar konferensiyasigacha unga a‘zo bo‘lishni reja qilyapti. Bu bilan mamlakatimiz xalqaro savdo maydonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida mintaqaviy va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etadi. Mas’ul va tashabbuskor davlat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, JSTga a‘zolik borasidagi bugungi sa‘y-harakatlarni kelajak uchun mustahkam zamin, desak bo‘ladi.

Sherzod SINDAROV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Xushxabar

Keyingi paytda qashqadaryolik mirishkorlarning tajribasi ancha oshdi. Mamlakatda birinchilardan bo‘lib poliz mahsulotlari bilan bozor rastalarini to‘ldiryapti. Bu borada, ayniqsa, ko‘kdalalik dehqonlarning mahoratiga qoyil qolmay iloj yo‘q. Har yili ertapishar tarvuz yetishtirib, nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarni ham ta’minlab kelmoqda. Shubhasiz, bu natijaga shunchaki erishib bo‘lmaydi. Uning ortida zahmatli mehnat, matonat va sabr yotibdi.

Qish chillasida qo‘liga ketmon olib, yerga urug‘ qaday boshlagan kundanqo dehqonda tinim bo‘lmaydi. Duga usulida ko‘chat ekib, sovuqdan himoyalashga kirishadi. Mashagqatli mehnatning rohatiga yetguncha harakatdan to‘xtamaydi. Mana shuncha zahmatdan so‘ng ayni paytda Ko‘kdala tumani dalalarida ish qizg‘in. Pushtalarni to‘ldirib yetilgan tarvuz hosilini ko‘rib ko‘z quvnaydi.

So‘nggi uch-to‘rt yilda tuman aholisi nafaqat keng maydonga, balki tomorqasiga ham ertapishar tarvuz ekishni yo‘lga qo‘ygan. Natijada o‘z bandligini ta’minlab, yaxshigina daromad ham topmoqda.

Bu yil may oyi ancha issiq keldi, — deydi dehqon Xudoyqul Diyorov. — Yuqori harorat esa tarvuzning yanada erta pishib yetilishiga sabab bo‘ldi. Uch yildan beri aynan tarvuz ekish bilan shug‘ullanib kelamiz. Daromad yomon emas. Oilamiz bilan ishlaymiz. Shuning ortidan ro‘zg‘orimiz obod.

Yaxshimurod Qobilov bir necha yildan beri fermerlik bilan shug‘ullanadi. U har yili tarvuz ekib, hosilning asosiy qismini chet elga sotadi. Bu yilgi shartnomaga ko‘ra, uch kun oldin dalaning o‘zidan xorijga tarvuz sota boshladi.

Bu yil fevralning o‘rtalarida ko‘chat ekkandik, — deydi “Qobilov Xo‘roz Xolboyevich” fermer xo‘jaligi rahbari Yaxshimurod Qobilov. — 4 gektar yerga duga usulida, 16 gektar joyga plyonka ostida yetishtirdik. Hozir hosilimizning bir qismi to‘liq pishib yetildi. Gektaridan o‘rtacha 30 tonnagacha tarvuz olish rejamiz bor. Kelishuvimizga asosan, yaqinda xorijlik ishbilarmonlar tarvuzimizni xarid qila boshladi. Endi bosqichma-bosqich yetkazib beramiz. Bundan tashqari, ichki bozorni ham ta’minlash uchun mahalliy tadbirkorlar bilan shartnoma tuzganimiz. Maqsadimiz — sifatli, mazali tarvuz bilan elimiz dasturxonini to‘ldirish. Hozir fermer xo‘jaligimizda 6 kishi doimiy ish bilan ta’minlangan, 30 odam mavsumiy ishga jalb etib kelinadi.

Ko‘kdala tumani hokimligi ma’lumotiga ko‘ra, joriy yilda tumanda tarvuz ekladigan yer maydoni sezilarli darajada

Kengaytirilgan. Jumladan, avvalgi 15 ming gektar o‘rniga 22 ming gektarga yetkazilgan. Shundan 10 ming gektar maydonga “Dolbi” navli tarvuz ekilgan. Mazkur nav suvsizlik va issiqqa chidamliligi, yuqori hosildorligi hamda eksportga yaroqliligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, oddiy navlarga nisbatan ancha ertapishar va xaridorgir. Ayni paytda ko‘kdalalik dehqonlar Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘izistonga tarvuz eksportini boshlab yuborgan.

Qashqadaryo viloyati bojxona boshqarmasi axborot xizmati rahbari Laylo Jo‘raqulovanning ma’lum qilishicha, viloyatda ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar tomonidan hozirga qadar deyarli 2 ming tonnaga yaqin tarvuz eksportga chiqarilgan. Mavsum davomida bu ko‘rsatkich yana ortishi aytilmoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KRAUDFANDING —

YOSHLAR UCHUN YANGI LOYIHALARGA IMKONIYAT

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha jabhalarida muhim ishtirokchiga aylanib ulgurdi. Bu jarayon moliyaviy sektorda ham o‘z aksini topayotir. Xususan, kraudfanding kabi innovatsion moliyalashtirish usullari paydo bo‘lib, tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, global kraudfanding bozori 2023-yilda 20,34 milliard dollarga baholangan. Ushbu bozor 2024-yildan 2032-yilgacha yillik o‘rtacha 18,24 foiz o‘shish sur‘atida rivojlanishi va 2024-yildagi 24,05 milliard dollardan 2032-yilga kelib 91,88 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bu jarayon texnologiyalar rivoji va global miqyosda onlayn platformalar kuchayishi fonida yangi bosqichga ko‘tarilib, an’anaviy moliyaviy institutlardan tashqarida yangi moliyaviy ekotizim shakllanayotganidan dalolat beradi.

Kraudfanding jamoaviylikka asoslangan bo‘lib, unda ko‘plab investorlar yoki oddiy fuqarolar kichik miqdordagi mablag‘ ajratish orqali biror loyiha yoki g‘oyani moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi.

So‘nggi yillarda kraudfanding orqali mablag‘ yig‘ish davolanish va reabilitatsiya, istiqbolli tijorat loyihalarini, siyosiy faoliyatni moliyalashtirish, obodonlashtirish, xayriya, ilm-fan, shuningdek, adabiyot va san‘at, sport kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilmoqda.

Ehsomni kraudfanding turlariga, shu bilan birga, investitsiyani amalga oshirish usullariga kiritish imkoniyati masalasi qonunchilikda belgilangan investitsiya tushunchasiga asoslanadi, bu yerda maqsad nafaqat foyda olish, balki boshqa muhim natijalarga erishish bo‘lishi mumkin. Amaldagi qonunchilik nuqtayi nazaridan, investor ko‘chmas mulk obyektlarini xarid qilish, qurish, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni sotib olish, aksiyalar, ustav fondidagi ulushlar, tijorat tashkilotlarining mul-mulkidagi paylarga egalik qilish yoki boshqa usullar orqali foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan muhim natijaga erishish maqsadini ko‘zlaydi.

Hozir kraudfandingning ko‘plab turlari mavjud va ular safiga yangilari ham qo‘shilishda davom etmoqda. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlar hamda maqsadlarga ega. Kraudfanding modellarinin quyidagi to‘rtta asosiy turini ajratish mumkin.

Xayriyaga asoslangan kraudfanding (donation-based crowdfunding yoki crowdfundating) oddiy model bo‘lib, odatda ijtimoiy yoki xayriya maqsadlarida qo‘llaniladi. Investorlar, asosan, altruistik motivatsiya bilan harakatlanadi va ular evaziga biror narsa kutmasdan pul xayriya qiladi. Agar tadbirkor yoki ixtirochi yangi mahsulot, xizmat uchun ajoyib g‘oyaga ega bo‘lsa, kraudfanding banklar, boshqa moliyaviy institutlar va jismoniy shaxslardan jalb etiladigan qarz yoki aksiyalarni taklif qilish orqali pul jalb qilishning an’anaviy usullaridan farqli o‘laroq, muqobil usulni taklif etadi. Xayriyaga asoslangan kraudfanding orqali tadbirkor o‘z mahsulotini loyihaga nisbatan kichik miqdorda xayriya qiladigan ko‘p sonli qo‘llab-quvvatlovchilarga oldindan sotish imkoniga ega. Bunda xayriya miqdorini rag‘batlantirish uchun tadbirkor moliyalashtirilayotgan loyiha yoki kompaniyaga egalik huquqini to‘liq saqlab qoladi. Xayriya tashkilotlari yordam yig‘ish vositasi sifatida



Aminjon QALANDAROV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti biznes huquqi
kafedras o‘qituvchisi

ko‘mak ko‘rsatish sa‘y-harakatlari yoki tashkilotni qo‘llab-quvvatlayotgan sabablar uchun kraudfandingdan foydalanishi mumkin. Misol uchun, xayriya tashkilotlari tabiiy ofatlar yuz berganda, halokatlil bo‘ronlar yoki zilzilalardan jabrlanganlarni qidirish, qutqarish va davolashga yordam berish uchun mablag‘ to‘plashi mumkin bo‘ladi. Tabiiy ofat hududiga oziq-ovqat va kiyim-kechak tashishni moliyalashtirish kabi maxsus ehtiyojlar uchun platformalar tashkil etilishi ham shular jumlasidan. Xayr-ehsonlar vaqtinchalik boshpanalar qurish yoki tibbiy buyumlar xarid qilish uchun olinishi mumkin. Kraudfanding infratuzilma va kommunal xizmatlarni rekonstruksiya qilish uchun mablag‘ yig‘ishda ham ishlatilishi amaliyotda mavjud.

Mukofotga asoslangan kraudfanding (reward-based crowdfunding) eng mashhur modellardan biridir. Nomidan ko‘rinib turganidek, moliyalashtiruvchilar loyihaga olib kelgan pul miqdoriga qarab mukofot oladi. Mukofotlar oddiy narsadan, masalan, minnatdorlik xatidan mahsulot prototipigacha bo‘lishi mumkin. Mukofotga asoslangan kraudfandingda mukofotlar pul ko‘rinishida bo‘lishi mumkin emas. Ushbu model, asosan, san‘at, musiqa, o‘yinlardan tortib dizayn va texnologiyagacha bo‘lgan ijodiy loyihalar uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, mukofot modeli ko‘pincha bozorga kirishdan avval oldindan

sotish shakli sifatida ishlatiladi. Shuningdek, mukofotga asoslangan kraudfanding pulni qaytarib bermaslik afzalligi tufayli mablag‘ yig‘ishning jozibali variantidir.

Kreditga asoslangan kraudfanding (lending-based crowdfunding yoki crowdlending). Iste‘molchi (P2P) va biznes kreditlash (P2B) ko‘rinishidagi kreditga asoslangan kraudfanding Yevropadagi muqobil moliya bozorining eng katta segmentini tashkil qiladi. Ushbu turdagi kraudfandingda moliyalashtiruvchilar iste‘molchilarga yoki korxonalarga kichik qarzlari orqali mablag‘ beradi va buning evaziga foiz oladi. Bu banklar taklif qiladigan kreditlardan pastroq narxda qarz olishning bir usulidir.

Shu o‘rinda nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati va kreditga asoslangan kraudfanding o‘rtasidagi farqli jihatlarga e‘tibor qaratish mumkin. O‘zbekiston Markaziy banki rasmiy saytida 2024-yil 26-aprel holati bo‘yicha mikromoliya tashkilotlari ro‘yxati keltirilgan. O‘zbekiston hududida 93 ta mikromoliya tashkiloti ro‘yxatdan o‘tgan. Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish kompaniyalari asosan kredit berish orqali kichik korxonalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, past daromadli aholi qatlamlari yoki moliyaviy bozorning boshqa segmentlaridagi mijozlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu tashkilotlar kichik miqdorda kredit berish, lizing, garov ta‘minotini osonlashtirish, savdoni moliyalashtirish kabi xizmatlar ko‘rsatadi. Ular odatda qisqa muddatli va kichik hajmli moliyaviy mahsulotlarni taklif qiladi. Investorlar tashkilotlari va mikromoliyalashtirish tashkilotlari banklarga qaraganda kamroq garov talablari qo‘yadi va kredit berish jarayoni oddiydirlatilgan bo‘ladi. Buning evaziga ular yuqori foiz stavkalari bilan ishlashi mumkin. Kreditga asoslangan kraudfandingda odatda garov talab qilinmaydi. Nobank kredit tashkilotlari foiz stavkalari bozor sharoitlariga ko‘ra belgilanadi, odatda yuqoriroq bo‘lishi ham kuzatiladi. Kraudfandingning ushbu modelida esa stavkalar investorlar va




USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

platforma o‘rtasidagi kelishuvga asoslangan bo‘ladi.

Aksiyalarga asoslangan kraudfanding (equity-based crowdfunding yoki crowdinvesting) investorlarga kichik miqdordagi aksiyalarni sotib olish orqali moliyalashtirilayotgan kompaniya aksiyadorlari bo‘lish imkoniyatini taklif qiladi. Investorlar moliyaviy hissalari evaziga biznesning potensial foydasiga sherik bo‘ladi. Kapitalga asoslangan ilk kraudfanding platformalaridan biri 2010-yilda ishga tushirilgan Crowdcube (<https://www.crowdcube.com/>) hisoblanadi. Shuningdek, kraudfanding jarayoni Wefunder va StartEngine kabi ixtisoslashgan onlayn platformalarda ham amalga oshiriladi.

Ushbu model investorlarga moliyaviy qimmatli qog‘ozlarni taklif qilish orqali kapitalni oshirishning an’anaviy usulini takdim etadi. Kraudfanding platformasining raqamli tabiati moliyalashtirishning yanada liberal va ochiq bo‘lishiga xizmat qiladi.



Kraudfanding zamonaviy moliyaviy mexanizmlar qatorida tez rivojlanishi va o‘ziga xos imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur model orqali startaplar, ijtimoiy loyihalar va ijodiy tashabbuslar uchun an’anaviy moliyalashtirish usullaridan cheklanmagan holda mablag‘ jalb qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Imkoniyat va xavf

Kraudfanding mexanizmi ko‘plab ijobiy imkoniyatlar yaratadi. Xususan, u startaplar uchun an’anaviy bank kreditisiz mablag‘ jalb qilish, fuqarolar uchun qiziqarli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ulardan foyda olish, shuningdek, ijtimoiy loyihalar hamda madaniy tadbirlar uchun yangi moliyalashtirish manbai yaratish imkonini beradi.

Biroq kraudfanding faoliyati bilan bog‘liq xavflar ham yo‘q emas. Mablag‘ning maqsadsiz ishlatilishi, investitsiyani qaytarish kafolatlari yo‘qligi, firibgarlik va investorlarning huquqiy himoyasizligi kabi xatarlar shular jumlasidan.

Mamlakatimiz qonunchiligida kraudfanding

2018-yil avgust oyida xorijiy mamlakatlar tajribasidan o‘rnak olgan holda yurtimizda ham kraudfanding platforma maydonchasi ishga tushirildi. Ammo MFond.uz deb ataluvchi ushbu platforma ommalashmagani bois, uning faoliyati to‘xtadi. 2013-yilda ham OAVda turli loyihalarni amalga oshirish uchun mablag‘ jalb etish bilan shug‘ullanadigan Factor.uz onlayn maydonchasi ishga tushirilgani, uning doirasida bir necha loyiha taklif etilgani haqida xabarlar chiqqan edi. Biroq oradan bir yil o‘tgach, bu platforma ish faoliyatini to‘xtatgan. Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining startaplari va loyihalarini moliyalashtirishning muqobil mexanizmlarini joriy etish maqsadida 2020-yil 30-sentabrda Vazirlar Mahkamasining “Kraudfanding platformasi orqali axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ommaviy moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e‘lon qilindi. Unga Axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ommaviy moliyalashtirish (kraudfanding) tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom ilova sifatida berilgan. Ushbu nizomda kraudfanding platformasi faoliyatini tashkil etish, loyihalarni

kraudfanding platformasiga joylashtirish va ularni moliyalashtirish tartiblari kabi masalalar aks etgan.

Bu zamonaviy moliyalashtirish maydonchasidan foydalanish ehtimoli mamlakatimizda past darajada bo‘lsa-da, kraudfanding platformasi faol harakatlarni amalga oshirmayapti deb aytish ham no‘rin. Xalq tomonidan moliyalashtirish imkoniyatini takomillashtirish muayyan vaqt talab etadi. Bunda aholi kraudfanding maydonchasidan foydalanishi va taqdim etilayotgan loyihalarni moliyalashtirishi uchun bilim hamda malaka talab etiladi. Shu bois, mamlakatimizda kraudfanding platformalarini rivojlantirish, samarali ishlashini ta‘minlash uchun, avvalo, ommaning ham bu boradagi bilimlarini, qiziqishlarini o‘rtirish yo‘lida targ‘ibot va tushuntirish ishlari keng miqyosda olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimiz qonunchiligida hozircha kraudfanding munosabatlari to‘liq tartibga solinmagan. Bu esa mazkur sohada huquqiy noaniqliklar va investorlar uchun xavf tug‘diradi. Biroq umumiy moliyaviy, shartnoma va iste‘molchilar huquqlarini himoya qiluvchi normal ayrim hollarda kraudfanding platformalariga ham tatbiq etilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksidagi shartnoma ekinligi prinsipi asosida platforma va foydalanuvchi o‘rtasida shartnoma tuziladi. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi va “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar kabi normativ-huquqiy hujjatlar kraudfanding platformalarida foydalanuvchilarning manfaatlarini qisman himoya qiladi.

Moliyaviy faoliyatining ayrim turlari (masalan, sarmoya jalb qilish) uchun litsenziyalash talablari mavjud bo‘lib, kraudfanding platformalari faoliyatiga ham tatbiq etilishi ehtimoli bor.

Ko‘plab davlatlarda kraudfanding alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. Masalan, AQSHda Jobs Act orqali, Yevropa Ittifoqida esa 2020/1503-reglament kraudfanding xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarini belgilaydi. Bu huquqiy tartiblar investorlarni himoya qilish, platformalar faoliyatini shaffoflashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan.

Qanday huquqiy chora-tadbirlar zarur?

Mamlakatimizda kraudfanding sohasida bir necha huquqiy chora-tadbirlarni ko‘rish maqsadga muvofiq deb o‘ylanman. Kraudfanding to‘g‘risida maxsus qonun qabul qilish, investorlar va mablag‘ oluvchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash hamda platformalarga litsenziya berish va faoliyatini nazorat qilish tizimini yaratish shular jumlasidan.

Kraudfanding zamonaviy moliyaviy mexanizmlar qatorida tez rivojlanishi va o‘ziga xos imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur model orqali startaplar, ijtimoiy loyihalar va ijodiy tashabbuslar uchun an’anaviy moliyalashtirish usullaridan cheklanmagan holda mablag‘ jalb qilish imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, oddiy fuqarolar uchun ham o‘z mablag‘ini muayyan loyihalarga investitsiya qilish imkoniyati kengaymoqda. Shu bilan birga, kraudfanding jarayonlari bilan bog‘liq xavf-xatarlar — mablag‘ning maqsadsiz sarflanishi, firibgarlik va investorlarning huquqiy himoyasizligi kabi muammolar mavjud.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, kraudfanding munosabatlari hali to‘liq huquqiy tartibga solinmagan mamlakatimizda huquqiy rivojini sekinlashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli kelgusida kraudfanding to‘g‘risida maxsus qonun qabul qilish, platformalarni litsenziyalash va qat’iy nazorat tizimini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kraudfanding madaniyatini rivojlantirish uchun esa keng jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot ishlariini kuchaytirish zarur.

Zero, xalqaro tajriba va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalangan holda kraudfanding yurtimizda ham innovatsion moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biriga aylanishi imkoniyatlari yuqori.



TOSHKENTDA ILK BOR SUZISH BO‘YICHA MARKAZIY OSIYO OCHIQ CEMPIONATI O‘TKAZILDI

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi suv sporti saroyida bo‘lib o‘tgan suzish bo‘yicha I Markaziy Osiyo ochiq chempionati musobaqalarida mamlakatimiz va Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmanistondan kelgan jami 200 ga yaqin yosh sportchi ishtirok etdi.



Tadbirning ochilish marosimida o‘tgan hafta davomida sinxron suzish bo‘yicha o‘tkazilgan birinchi Markaziy Osiyo ochiq chempionati hamda “Suv parisi” xalqaro turniri, bu haftada O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazilayotgan suzish bo‘yicha I Markaziy Osiyo ochiq chempionati yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni, shu jumladan, suv sportini rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e‘tibor natijasi ekanini alohida e‘tirof etildi. Bugungi kunda O‘zbekiston sportchilarining xalqaro tajribalarini yuksaltirish, xususan, suv sporti sohasida yetakchi xorijiy davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni tizimli yo‘lga qo‘yish, sportchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash, yuqori malaka va tajribaga ega murabbiylar tarkibini shakllantirish yo‘nalishlarida tizimli ishlar amalga oshirilayotgani ta‘kidlandi.

Prezidentimizning 2024-yil 4-noyabrda “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2025-yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholining jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar ijrosini

sifatli ta‘minlash maqsadida yurtimizda ilk bor suzish bo‘yicha o‘tkazilgan Markaziy Osiyo ochiq chempionati ishtirokchilari O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan Toshkentda munosib kutib olindi. Mehmonlar uchun Toshkent shahri bo‘ylab sayohatlar tashkil etildi. Jumladan, sportchilar va ularning murabbiylari “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib, Mustaqillik monumenti payiga bog‘o‘ydi. Mazkur sayohatlar davomida xorijiy mamlakatlardan kelgan delegatsiyalar vakillari va yosh sportchilar so‘nggi yillarda yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash borasidagi izchil islohotlar samarasi, shu jumladan, sportda erishilgan yutuqlar bilan yaqindan tanishtirildi.

Ishirokchilar I Markaziy Osiyo ochiq chempionatini yuqori saviyada o‘tkazishga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilganini alohida qayd etdi.

Musobaqada “A”, “B” va “C” guruhlarida 50, 100, 200 va 400 metrga erkin usulda suzish, 200 va 400 metrga kompleks suzish, 50, 100 va 200 metrga chalgancha, 50, 100 va 200 metrga batterflyay, 100 va 200 metrga brass usulida suzish, shuningdek, 4x100 metrga kombinatsiyalangan miks estafetasi, erkin usuldagi miks estafetasi, erkin usuldbdagi



estafeta, kombinatsiyalangan estafeta kabi yo‘nalishlarda g‘oliblar aniqlandi.

G‘oliblar O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zbekiston suv sporti federatsiyasi tomonidan diplom va medallar, esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Ochiq chempionatda o‘zbekistonlik sportchilar yuksak natijalarni qo‘lga kiritib, shohsupaning yuqori pog‘onalaridan o‘rin oldi hamda ko‘plab oltin, kumush va bronza medallarga sazovor bo‘ldi.

Mutaxassislar inson salomatligi, ayniqsa, yosh avlod har tomonlama sog‘lom voyaga yetishida sport turlari ichida suzishni eng foydali deya ta‘kidlaydi. Demak, suzish bo‘yicha Toshkentda o‘tkazilgan ochiq chempionat yoshlarning jismoniy faolligi va sog‘lom rivojlanishi uchun ham xizmat qiladi. O‘z navbatida, mazkur musobaqa “Sog‘lom inson — sog‘lom millat” g‘oyasini umummilliy harakatga aylantirish yo‘lidagi muhim qadam hamda bo‘lajak Olimpiya chempionlarini tarbiyalashda o‘ziga xos tayyorgarlik bosqichi hamdir.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangi kitob taqdimoti

“OSMONI
FALAKLARDA”GI
NAFIS MAJLIS

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida barcha jabhalar qatori ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va adabiyot, jumladan, kitob va kitobxonlik masalalariga yuksak e’tibor qaratilayotgani jamoatchilгимizga yaxshi ma’lum. Xususan, jamiyatimizda aholining madaniy saviyasi va mutolaa madaniyatini yuksaltirishga doir muhim hujjatlar ijrosini ta’minlash yuzasidan boshlangan katta ishlar, milliy dasturlar izchil davom ettirilmoqda.

Yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish va targ‘ib qilish vazifasi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangani ham ushbu masalaga qanchalik jiddiy e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Ayni shu ezgu maqsadda mamlakatimiz miqyosida “Yosh kitobxon”, “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon oila” singari qiziqarli tanlovlar, “Yoshlar uchun ming kitob”, “Ma’rifat ulashib”, “Kitob karvoni” aksiyalari, kitob bayramlari va yarmarkalari muntazam tashkil qilinmoqda.

Yaqinda Farg‘ona viloyatida Xalqaro kitobxonlik festivali yuksak saviyada tashkil etilib, unda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatidan kitobsevarlar, taniqli shoir va yozuvchilar, ziyolilar ishtirok etgani yana bir muhim voqea bo‘ldi.



“Taniqli yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub ushbu kitob o‘zbek adabiyotida deyarli yoritilmagan mavzu — uchuvchilar hayotiga bag‘ishlanadi. Majoziy ma’noda “samo lochinlari” deb ataladigan mashhaqqatli kasb egalarining muntazam mardlik va matonat talab etadigan faoliyati, ularning favqulodda holatlardagi qalb kechinmalari, qat’iyat va irodasi, sevgi va burchga sadoqat tuyg‘ulari chuqur dramatzim bilan tasvirlanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda 600 dan ziyod nashriyot, 700 ga yaqin kitob do‘konlari, shu bilan birga, kitob yetkazib berish xizmatlari hamda onlayn savdo platformalari faoliyat yuritmoqda.

Bularning barchasi O‘zbekistonda kitobxonlik davlat e’tiboridagi masala bo‘lib, mutolaa madaniyatini yuksaltirish umummilliy harakatga aylanayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham sezilarli yuksalish bosqichiga qadam qo‘yganiini yaratilayotgan yangi-yangi badiiy asarlar misolida ko‘rish mumkin.

Kuni kecha poytaxtimizdagi muhtasham “Renessans” san’at saroyida mana shunday o‘ziga xos asarlardan biri — “Osmoni falaklarda” nomli yangi kitob taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Taniqli yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub ushbu kitob o‘zbek adabiyotida deyarli yoritilmagan mavzu — uchuvchilar hayotiga bag‘ishlanadi.

O‘z muxbirimiz

MA’NAVIYAT

YANGI O‘ZBEKISTON

Bugunning gapi

BIR AVLOD KELMOQDA

ORZULARI YUKSAK, NIYATLARI OYDIN,
QARASHLARI NURLI

Qaysi ziyoli yoki ijodkorning bolalik xotiralari haqida o‘qisangiz, albatta, momosi, onasidan matal, ertak, doston eshitib ulg‘aygani haqida yozadi. Hayot yo‘llarida nimagaki erishgan bo‘lsa, ilk saboq, ibratni onasidan olganini aytadi.

Ibn Sino onasi Sitorabonu, Amir Temur onasi Takina xotun, Bobur Mirzo onasi Qutlug‘ Nigorxonim, Munavvarqori onasi Xosiyatxon otin, Abdurauf Fitrat onasi Bibijon, Is’hoqxon Ibrat onasi Huribibidan ilk tarbiyani, yashash ilmini, ibratni o‘rgandi. Onalar — ta’lim-tarbiyaning boshi, avvali.



Ziyoda AMINOVA,
Qashqadaryo viloyati
hokimi o‘rinbosari — Oila va
xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i

— Keyingi yillarda qashqadaryolik qizlarning oliy ta’limga qiziqishi ortib bormoqda, — deya gapga yana qo‘shildim. — Bir paytlar ijtimoiy tarmoqlarni “yondirgan” mavzular, ya’ni qizlarni erta turmushga uzatish masalasi ancha chekindi. O‘qigan qiz qayerda bo‘lsa ham qadrlil ekanini odamlarimiz anglab, qizlarini o‘qityapti. Ishonasizmi, Shahrisabzning Mo‘minobod qishlog‘ida qaynonalar kelinini oliy ma’lumotli qilishi urfga kiribdi. Kelinim bo‘lg‘usi professor deb ko‘ksi to‘lib gapirayotgan momolarni uchratdim. Ko‘kdalada esa o‘tgan yili 49 bitiruvchi tibbiyot sohasi talabasi bo‘ldi, ularning 22 nafari qizlar.

Damliklar birpasda mehmonlarni o‘rab oldi. Bitiruvchi sinf qizlari bilan kechgan suhbat boshida sal qovushmagandek bo‘ldi. Chunki qizlar avvaliga mehmonlar yonida tortinib turdi. Lekin notiqlar o‘z bolaligi, oilasidagi muhit, ota-onasining o‘g‘itlari haqida maroq bilan aytib bergach, suhbat mohiyatan mazmunga ena boshladi.

— Barcha yaxshi xulq va erishgan yutuqlarim uchun ota-onamdan rozi bo‘laman, ular shunaqang daryodil va katta qalbli insonlar ediki, endi bilsam, yuqtirganlarim bisyor va mo‘l. Hayotda nimaiki yutuqqa erishgan bo‘lsam, ota-onamdan olgan tarbiya, o‘git evaziga, — deydi shoirra Farog‘at Xudoyqulova. — Sizlarga qarab, shoirming o‘sha mashhur satrlari yodimga



tushyapti-da: “Oh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi”. Qarang, kuni kecha kitobxon qizlar otasiga BYD mashinasini sovg‘a qildi. Biram havasim keldi. Men ham otamga mashina sovg‘a qilsam, ko‘zidagi quvonchni ko‘rsam deb orzuladim. Endi sizning yoningizdan katta tashabbus bilan poytaxtga ketyapman, biz kabi yoshi ellikdan oshganlar o‘rtasida ham kitobxonlik tanlovi o‘tkazilsa, men ham mashina yutib olsam, enam bilan otamni suyuntirsam deyman-da.

Davrada yengilgina kulgi ko‘tariladi. Farog‘at opa masrurlandi. Shunday bag‘rikeng odamlar bilan suhbat qurayotgan yuz o‘z eldoshlari orasida dilidagilarni to‘kib solayotganiga. Shoirra yurt ayollari e’zoziga doir she’rlar o‘qidi. Unga monand mahallaning kayvonisi Sevar momo jo‘r bo‘ldi, lapar aytdi. Davrani bir to‘lqin, uyg‘onish keza boshladi...

Qizlar qo‘l ko‘tarib, o‘z maqsadlari haqida biyron so‘zlay ketdi. Ana qarang, Farangiz qizimiz shifokor bo‘lmoqchi, Sevinch esa tarjimon, u allaqachon ingliz tili bo‘yicha sertifikat olgan. Yana bir qizimiz Malohat elchi bo‘lmoqchi... Muloqot dilkashlikka qarab yuz tutdi, orqada o‘tirgan bitiruvchi qizlarning qo‘li ko‘tarildi, o‘qituvchi, hunarmand, tadbirkor, muhandis, gidrolog, geolog, kadastr xodimi... Ularni tinglab tog‘dek yuksalamiz.

Targ‘ibotchilar bilan bir-birimizga boqamiz va ko‘nglimizdan kechganlarni o‘qiyamiz. Ha, bir avlod kelmoqda, orzulari baland, niyatlari oydin, qarashlari nurlil. Ular yangi O‘zbekistonning yangicha dunyoqarashli yoshlari, qizlari...

qamrab olish rejalangan bo‘lib, viloyat uchun bu ko‘rsatkich 25 ming 879 nafar ekani aytilganida, qizlar quvonchdan qarsak chaldi. Ha, har bir raqam ortida bir insonning, ayolning, unib-o‘tib kelayotgan qizlarimizning taqdirlari bor.

Tadbimeng eng hayajonli damlari haqida aytar bo‘lsam, dastlab o‘z tengqurlari orasida iste’dodi va qobiliyati bilan ajralib turgan qizlarning ism-shariflari o‘qildi va sahnaga taklif etildi. So‘ngra onajonlarning nomi yangradi. Davra to‘ri ularga muntazirligi, bu kabi mo‘tabarlik farzand ortidan ekani e’lon qilindi.

Mana, ulardan biri, kasonlik zukko qizimiz Gulasal Bo‘tayeva rekord natijani qayd etdi, IELTS dan 9 ball oldi. Ijtimoiy tarmoqlarda bu



Keyingi manzilimiz Qarshi davlat universitetining muhtasham zali bo‘ldi. Bunda jami bo‘lganlar sahnadagi montiroga boqadi. Katta ekan yorishib, unda yozuv paydo bo‘ladi: ILMLI QIZ — JAMIYAT KO‘ZGUSI.

Boshida iroqi do‘ppilari yarashib turgan, ko‘zlarida chaqin porlayotgan bitiruvchi sinf qizlari bir-biriga zimdan qarab qo‘yadi. Ular bu da’vatni chin dildan his etayotgani shundoqqina bilinadi. Ha, bugun hayot oldimizga qo‘yayotgan masala, so‘roq va savollarga yechim topish haqida o‘y surilganida yagona xulosaga kelmoqdamiz: qutqarsa, bizni faqatgina ilm, bilim, ta’lim va tarbiya qutqaradi.

So‘z olganlar galma-gal mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlar, yangiliklar, o‘zgarishlar

noyob qobiliyat egasiga tasannolar aytildi. Biz esa barcha rag‘batning yu‘boshchisi Gulasalning onasiga ehtirom ko‘rsatdik. Tashakkurnoma va sovg‘ani olar ekan, Sayyora Fayziyeva o‘z izhorlarini ko‘zda yosh bilan aytdi:

— Men bu kunlarni umid bilan kutganman. Farzand ortidan sevinishdan ortiq baxt bor ekanni? Shunday farovon yurtida yashab, qizim ortidan rahmat eshatayotganim... Buni til bilan aytib bera olmayman. Agar yuragimdan kechganlarni tarjima qilish imkoni bo‘lganida, undan bir so‘zni o‘qiyisiz — shukur.

Olqishlar olqishlarga ulandi. Qizlar ortidan onalar taqdirlandi. Shunday dono qizlarni ulg‘aytirayotgani uchun ularga rahmatlar aytildi. Buni ko‘rgan bitiruvchi qizlarning qalbidan ham yangi orzu paydo bo‘ldi: “Men ham ota-onamni shunday ehtirom bilan siyliyman”.

Hayajon, qarsak, e’zoz va shukronalik ruhi qalblardan qalblarga ko‘chdi. Viloyat “Oqila ayollar” harakati va “Ayol ma’rifati” jamoatchilik kengashi a’zolari jam bo‘lgan davraning quzurlari anchagacha davom etdi. Qizlarning murojaat va savollari tinglandi, zarur ko‘rsatma va tavsiylar berildi.

Hayotimiz davomida uchrayotgan ba’zi masalalar yechimi haqida fikrlashildi. Erta nikoh, qarindoshlar nikohi, yoshlarni oilaga tayyorlash, qizlarimizni o‘qitish, to’y va ma’rakalarni ixchamlashtirish kabi masalalar atrofida munozara yuritildi.

Ha, yurtimizda “elning vijdoni” bo‘lgan kayvoni otaxon-onaxonlar ko‘p. Ularning aytgani aytgan, degani degan. Ular mahallaning yoshu keksasi holidan hamisha boxabar. Kimning o‘g‘li maktabni tugatdi, kimning qizi poytaxtda o‘qiyapti, qaysi ro‘zg‘orda ayolning ovozi balandroq chiqmoqda, qaysi xonadonda e’tiborga muhtoj qariya bor. Bu savollarning javobi ularning kuzatuv daftaridan o‘rin olgan. Shu sabab kim mahallaga qadam qo‘ysa, sovg‘i bo‘lib kelsa, avval shu kayvoni momolar bilan uchrashadi. Bu odat, an’ana yillar davomida shakllanib, qadriyatga aylangan.

Bugun tarmon shiddat bilan rivojlanmoqda. Yon-atrofdan zili tahdidlar soya solib turgan bir paytda tarbiyalangan tarbiyachilarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Bu boradagi kechiktirib bo‘lmas vazifalar, avlodni yuksaltirish, millat kamoloti haqidagi o‘y-tashvish barcha yumushlarning avvali va dolzarbi ekanini ko‘rsatmoqda.

Ma’rifatli onalar ilmi jamiyatni barpo etadi. Bu kabi chora-tadbirlar ezigulik uchun xizmat qiladi. Zulfayxonim aydgani kabi hayot kitobini bevos varaqlab, quyidagi haqiqatga ko‘zimiz tushadi: “Oilada ham, jamiyatda ham hamijihat bo‘lish, o‘shish, yuksalish omillari ayolning donoligiga bog‘liq. Bu donolik va tafakkur mehr-muhabbatni mustahkamlaydi. Elparvar, yurtsevar o‘g‘il-qizlar kamol topishi uchun mustahkam zamin yaratadi”.